

**BOR NITRIDI VA XROM KARBIDILI LIGATURA BILAN
MODIFIKATSIYALANGAN KULRANG CHO‘YAN ICHKI TUZILISHINING
TADQIQOTI**

Xayitov J.X

«NKMK» AJ «Navoiy mashinasozlik zavodi» ISHB direktori

Abdullayev K.S

«NKMK» AJ «Navoiy mashinasozlik zavodi» ISHB bosh muhandisi

Rasulov I.B

«NKMK» AJ «Navoiy mashinasozlik zavodi» ISHB

bosh muhandis o‘rnibosari

Ulugov G.D

«NKMK» AJ «Navoiy mashinasozlik zavodi» ISHB

Markaziy zavod laboratoriysi muhandis-metallshunosи, PhD

Salimjonov X.A

«NKMK» AJ «Navoiy mashinasozlik zavodi» ISHB

yoshlar yetakchisi

Maqolada bor nitridi va xrom karbididan tashkil topgan ligaturaning СЧ 25 markali kulrang cho‘yanga ta’sirini o‘rganishda namunalarning kimyoviy tarkibini tahlili, ichki tuzilishini tadqiqoti va mexanik xossalarni aniqlash orqali olingan natijalar tahlili keltirilgan. СЧ 25 markali kulrang cho‘yandan quymalar quyishda ushbu ligaturadan foydalanish, quymalar ichki tuzilishini yaxshilanishiga, quymalar qattiqligini va mustahkamlik chegarasini oshishiga xizmat qilishi ko‘rsatilgan.

Tayanch iboralar: Kulrang cho‘yan, ligatura, modifikatsiyalash, ichki tuzilish, mexanik xossalalar, bor nitridi, xrom karbidi.

В статье представлен результаты исследований влияния лигатуры содержащей нитрида бора и карбида хрома, на структуру серого чугуна СЧ 25, который включает в себе анализ химического состава, исследование структурных изменений и определение механических свойств отливок. Показано, что применение данного модификатора при литье серого чугуна СЧ 25 позволяет улучшить структуру, увеличить твердость и предель прочности отливок.

Опорные слова: Серые чугун, лигатура, модификация, микроструктура, механические свойства, нитрид бора, карбид хрома.

“Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasining quyish sexida СЧ 25 markali kulrang cho‘yandan BelAZ 548 samosvallarining tormoz tizimi barabanlari, HC nasoslarining korpuslari, HT-250 tokarlik stanoklarining asoslari, jag‘li ma’dan maydalagichlar ehtiyyot qisimlari va bir qator quyma detallar ishlab chiqariladi.

Quymalar ichki tuzilishini yaxshilash orqali ularning mexanik va ekspluatatsion xossalarini oshirish muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biridir.

Shu o'rinda zavod markaziy laboratoriyasida turli texnologiyalar yordamida suyuqlantirilgan kulrang cho'yan sifat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. СЧ 25 rusmli quyma cho'yanning Ts07621395-033 2015 raqamli “Po'lat va cho'yan quymalar. Umumiy texnik shartlari” tashkilot standartida tasdiqlangan kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

СЧ 25 markali kulrang cho'yanning kimyoviy tarkibi

Qotishma markasi	Elementlarning massali ulushi, %					
	C	Mn	Si	S	P	Fe
СЧ 25	3,20 – 3,40	0,70 – 1,00	1,40 – 2,20	0,15 – 0,20	0,15 – 0,20	qolgani

Modifikatsiyalash jarayonida suyuqlantirilgan metallga faol modda kiritilganida, modifikatorlar eritmaning kimyoviy elementlari bilan birikib, qattiq zarralarni va eritmada kristallanish markazlarini hosil qiladi. Bu esa quyma ichki tuzilishi donadorligini maydalashishiga olib keladi. Aynan shuning uchun qiyin eriydigan zarralar modifikatsiya qilish jarayonida kristallanish markazlari barpo qiladi va bunday zarralar qancha ko'p bo'lsa, kristallanish markazlari shunchalik ko'p paydo bo'ladi [1].

Modifikatsiyalashning effekti yuqori bo'lishini ta'minlash maqsadida, qiyin eriydigan qo'shimchalarni tanlash yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijlari quyidagi shartlar bajarilishini talab qiladi:

- quymada alohida faza hosil qilishga moyil bo'lgan zarralardan foydalanish;
- o'lchamlari quyma donadorligiga mos keladigan zarralardan foydalanish;
- metall xossalariga ega bo'lgan zarralardan foydalanish;
- eritmada kristallanish markazlari hosil qila oladigan endogen zarralarni yaratishga moyil bo'lgan moddalardan foydalanish [2].

Ushbu ishning maqsadi yuqorida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq modifi-katorlar tarkibini shakillantirish va ularning СЧ 25 markali kulrang cho'yanning ichki tuzilishiga hamda mexanik xossalariga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Modifikatorning tarkibini shakillantirishda uning kristallanish jarayoniga ta'sirining o'ziga xos xossalari bilan bog'liqligi inobatga olidi. Bu holatda faol faza sifatida bor nitridi hisoblanadi. Xrom esa faol moddalarning aglomeratlarga birlashtiruvchi vazifasini bajaradi va qotishmada xrom karbidini hosil qilib, kristallanish markazlarini hosil qiladi. Shuningdek, modifikator tarkibidagi xromning ta'siri СЧ 25 markali kulrang cho'yanning tarkibidagi xrom miqdori (2-jadval) bilan ham bog'liq. Shu sababli, qotishmadagi faol faza sifatida bor nitridi ko'rib chiqildi.


Bor tarkibli modifikatorning ta'sirini aniqlash uchun uchta quyma namunalar quyib olindi. Bular modifikatsiyalanmagan СЧ 25 markali kulrang cho'yandan quyib olingan nazorat quymasi va bor tarkibli ligatura bilan modifikatsiyalangan quyma namunalar. Modifikatorning kimyoviy tarkibi to'g'risidagi ma'lumot 1-jadvalda keltirilgan.

Quyma namunalar	Modifikator tarkibi	Modifikator massasi, g.	Aktiv faza tarkibi	Aktiv faza massasi, g (%)
1	Nazorat quymasi	-	-	-

2	NB +Cr	5	NB	2,5 (0,01)
3	NB +Cr	15	NB	7,5 (0,03)

Tadqiqot uchun qotishma namunalarini suyuqlantirish ishlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti texnoparki hududida ИПП-25 rusmli induksion pechida bajarildi. Namunalarni quyib olishda, harorat sharoitlarini bir xilligi ta'minlangan holda, 200 kilogramm sig'imli cho'michdan foydalanildi. Namunalar qum-gilli aralashmali qoliplarga 1350 -1380 °C haroratda quyib olindi.

Modifikatsiyalash jarayoni, ikkita keramik filtr orqali quyish usulida, 1 - rasmda ko'rsatilgan sxemaga muvofiq bajarildi. Ushbu quyma qolipning afzalligi modifikatorning yuzaga chiqishini va qotishmada bir tekis taqsimlanishini ta'minlashdan iborat. Modifikatorning miqdori quyma umumiyligi massasining 0,02% ni tashkil etadi. Modifikatsiyalashning ta'siri, namunalar ichki tuzilishining metallografik tadqiqotlari va mexanik xossalari aniqlash natijalari asosida baholandi.



1-rasm. Quyma namunalar olish qolipining sxemasi. 1- keramik filtrlar; 2 - Modifikator joylashtirilgan alyumin folgasi; 3 - mexanik xossalari sinovi uchun namunalar; 4 - kimyoviy tarkib va ichki tuzilishi tadqiqoti uchun namunalar.

Olingan namunalarning kimyoviy tarkibini aniqlash SPEKTROMAXx optik emission spektrometrida, mexanik xossalari LEM 50 rusmli sinov mashinasida, ichki tuzilishi esa METAM PB-23 rusmli metallografik mikroskopida amalga oshirildi.

Quyib olingan namunalar kimyoviy tahlili natijalari 2 -jadvalda keltirilgan.

2 -jadval

Namunalarning kimyoviy tarkibi

Quyma namunalar	Elementlarning massali ulushi, %								qolgani
	C	Mn	Si	P	S	Ni	Cr	Cu	
1	3,83	0,53	3,88	0,03	0,05	0,11	0,16	0,60	
2	3,79	0,54	3,8	0,04	0,03	0,12	0,17	0,64	
3	3,81	0,52	3,67	0,04	0,05	0,12	0,17	0,64	

Kimyoviy tahlil natijalarida, modifikatorning kulrang cho'yan kimyoviy tarkibini o'zgartirmaganligi, shu bilan birga, qotishma ichki tuzilishi va mexanik xossalariga ta'siri aniqlandi.

Namunalar ichki tuzilishining metallografik tadqiqotlari asosida olingan fotosuratlar 2-rasmida keltirilgan.



2 – рasm. Namunalar mikrosuratlari. a - nazorat namunasi; b,d - NB-Cr3C2 ligaturasi orqali modifikatsiyalangan namunalar. x100.

O'r ganilayotgan uchchala namuna ichki tuzilashlarining asosi ferrit-perlitdan va to'g'ri chiziqli hamda yarim aylanma shakldagi grafitlardan iborat. Nazorat namunasida (a) ferrit tarkibi 5-10 foizni tashkil etadi grafit mikrojilvir yuzasida notejis taqsimlangan. NB-Cr3C2 ligaturasi bilan modifikatsiyalangan namunalar ichki tuzilishi (b, d) asosi ham ferrit-perlitdan va yarim aylana shakldagi grafitlardan iborat. Bu namunalarda ferrit tarkibi 3-5 foizni tashkil etganligi grafitning mikrojilvir yuzasida bir tekis taqsimlanganligi kuzatildi. Grafit qo'shimchalarining o'rtacha uzunligi: nazorat namunalaridi ~500 mikronni (1 -a rasm), modifikatsiyalangan namunalarda esa 50 - 300 mikronni tashkil etmoqda (1 -b, -d rasmlar). Ferrit-sementit aralashmasining mikrojilvirlar yuzasida tarqalishi barcha namunalarda bir xil ko'rinishda.

NB-Cr3C2 modifikatorining СЧ 25 cho'yan ichki tuzilishiga ta'siri 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Modifikatsiyalashning cho'yan ichki tuzilishiga ta'siri

Quyma namunalar	Grafit shakli	Grafit uzunligi, mkm	Grafit	tarqalganligi
-----------------	---------------	----------------------	--------	---------------

Grafit miqdori	Perlit va ferrit nisbati
----------------	--------------------------

1-nazorat namunasi	To'g'ri chiziqli plastinkali
--------------------	------------------------------

120...250	Notejis tarqalgan
-----------	-------------------

8-10 %	
--------	--

70/30	
-------	--

2 -namuna YArim aylana shaklda
60...120 Bir tekis tarqalgan 5–8 %

94/6

3 -namuna YArim aylana shaklda
30...60 Bir tekis tarqalgan 3–5 %
98/2

Modifikatsiyalashning cho‘yan ichki tuzilishiga eng katta ta’siri, faol fazaning 0,03 foizli konsentratsiyasida namoyon bo‘ldi (2d -rasm). Grafit qo‘silmalarining miqdori namunalar tartibi bo‘yicha 8-10, 5-8 va 3-5 foizni tashkil etadi. 1 – nazorat namunasida perlit va ferritning nisbati 70/30, ikkinchi namunada 94/6 va uchinchi namunada bu nisbat 98/2 ni tashkil qildi. Barcha namunalarda ferrit grafit qushilmalari atrofida joylashganligi aniqlandi. Modifikator zarrachalari namunalar ichki tuzilishida yaqqol ko‘rinmagan.

Modifikator tarkibidagi faol fazaning qotishma qattiqligiga va musahkamlik chegarasiga bog‘liqligi 3 -rasmda keltirilgan di

Modifikatsiyalangan namunalarning qattiqligi nazorat namunasi qattiqligi-dan 10 – 13 % yuqori bo‘lganligi qayd etildi. Mustahkamlik chegarasining maksi-mal o‘sishi 15 foizgacha bo‘lganligi qayd etildi.

Modifikatsiyalashda qotishma ichki tuzilishidagi ushbu o‘zgarishlar, ya’ni, perlitning ferritga nisbati ko‘payishi, grafit qo‘silmalari o‘lchamlarining kichrayishi o‘z navbatida qotishma qattiqligini va mustahkamlik chegarasini oshishini ta’miladi.


Xulosa. СЧ 25 markali cho‘yan tarkibini bor nitridi va xrom aralashmasidan iborat ligatura bilan modifikatsiyalash, namuna ichki tuzilishida perlit tarkibining ko‘payishiga va grafit qo‘sishchalari uzunligining qisqarishiga olib kelganligi kuzatildi. Namuna ichki tuzilishining bunday o‘zgarishi, quymalar qattiqligini va mustahkamlik chegarasini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

BIBLIOGRAFIK RO‘YXAT:

1. Модификация чугуна твердой чугуномагниевой лигатурой в ванне дуговой электропечи / В.И. Бедарев, А.К. Диянов, И.А. Зоткин., Л.И. Оржех и др. // Литейное пр-во. – 1979. - №11. – С.8.

2. Модификация чугуна чугуномагниевой лигатурой / Л.А. Большаков., О.В. Жерлицына // Вісник Приазовського державного технічного університету. – Маріуполь, 2009. – Вип. № 19. – С. 30-34.

3. 3. Abdullayev K.S., Rasulov I.B., Raxmanov U.J., Ulugov G.D. Bor elementi bilan modifikatsiyalashning 110Г13Л markali po_—lat ichki tuzilishiga ta'sirini metallografik tadqiqoti. «Nodir va noyob metallar kimyosi va texnologiyasi: bugungi holati, muammolari va istiqbollari (k.f.d., professor H.T. Sharipov xotirasiga bag_—ishlangan)» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to_—plami II -qism. 28-29 aprel 2023 y. - Termez shahri. 238-239 b.agrammada



3 –rasm. Kulrang cho'yan mexanik xossalalariga modifikatorning faol fazasi konsentratsiyasiga bog'liqligi